

**SAMARQAND VILOYATINI MADANIY ME'ROS OBYEKTлари XARITALARINI GAT
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB YARATISH MASALALARI****U.A.Raximov****J.U.Ortiqov****L.A.Ilmurodova****F.M.Tadjidina***Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura
qurilish universiteti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixiy-madaniy qiymatga ega bo'lgan obyektlarni davlat hisobiga olish, hamda Moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros obyektlarining ro'yxatini yuritish haqida ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari manbada madaniy meros obyektining madaniy muhitida himoya zonalari o'rnatilishini amalga oshirish to'g'risida tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Madaniy meros obyektlar, moddiy madaniy meros obyektlar, nomoddiy madaniy meros obyektlar, GAT, himoya zonalari, qo'riqlanadigan hudud, rivojlanish va iqtisodiy faoliyatni tartibga solish zonasi, qo'riqlanadigan tabiiy landshaft zonasi, YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro'yxati.*

Bugungi kunda "O'zbekiston-sivilizatsiyalar chorrahasi" deb e'tirof etilishida madaniy meros obyektlari o'zni alohida o'rin egallaydi. Arxeologik qidiruv ishlari va xaritalashtirishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari yordamida madaniy meros obyektlari haqida ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, saqlash va ularni qayta ishlash asosida malumotlar ba'zasini yaratish hozirgi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonning umummilliy boyligi hisoblangan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ulardan maqsadli foydalanish borasida mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi hamda uning viloyatlarda Madaniy meros boshqarmalari tashkil etilgan. Hozirgi paytda moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan foydalanishni tubdan takomillashtirish maqsadida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

Mavzuli kartografiyaga oid mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini kartografik jihatdan tadqiq etish bo'yicha respublikamizda ham qator tadqiqotlar bajarilgan. Ayniqsa T.M.Mirzaliev, E.YU.Safarov, A.Egamberdiev, J.S.Qoraboev, L.X.Gulyamova, S.Salohitdinova va boshqa tadqiqotchilarning ishlari ayniqsa e'tiborga loyiqdir.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari an'anaviy xaritaga olish usullari asosida olib borilganligini alohida qayd etish kerak. Hozirgi kunda, madaniy meros obyektlarini

o'rganish va muhofaza qilish chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ushbu sohani majmual tadqiq qilishda kartografik metod bilan birgalikda zamonaviy GAT dan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xaritaga olishning zamonaviy metodlari va texnologiyalari yordamida madaniy meros obyektlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, saqlash va ularni qayta ishlash asosida modellashtirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolada bugungi kundagi Samarqand viloyatidagi mavjud bo'lgan madaniy meros obyektlarini hududlar bo'yicha tarqalishini va ularni zamonaviy GAT texnologiyalarida xaritaga olish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, qolaversa madaniy meros obyektlarini butun jahonda tutgan o'rnini geoaxborot tarmoqlari yordamida tahlil qilish masalalari yoritib berilgan. Bundan tashqari, ma'lumotlardan foydalanish va ularni qayta ishlash metodlari haqida ham fikr yuritilgan.

Samarqand viloyatidagi mavjud madaniy meros obyektlarini tadqiq qilish va ularni zamonaviy GAT texnologiyalari asosida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ushbu mavzudagi xaritalarni yaratish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

▣viloyatdagi mavjud madaniy meros obyektlarini hududlar bo'yicha tarqalishini o'rganish va tahlil qilish;

▣Samarqand viloyati misolida madaniy meros obyektlarini zamonaviy GAT dasturlarida xaritaga olish.

GAT dasturlarida madaniy meros obyektlarini ma'lumotlar bazasini shakllantirish, xaritaga olish orqali ularning sifat ko'rsatkichini baholash ilgari surilganligi bilan bir qatorda madaniy meros obyektlarini qidirish usullarini zamonaviy metodlar va texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilgan. Umuman olganda, ushbu mavzuda hali o'rganilishi va ochilishi zarur bo'lgan qator muammolar mavjud. Ularni zamonaviy kartografik tadqiqotlar asosida o'rganish bugungi kundagi soha mutaxassislarining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, Samarqand viloyati tarixiy, madaniy, arxeologik yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarga boy. Ularni asrab-avaylanayotgani, sayyohlar va mahalliy aholi uchun zarur sharoitlar yaratilayotgani natijasida viloyatda turizm izchil rivojlanmoqda.

Samarqand viloyatida hozirda 1607 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 973 tasi arxeologiya, 562 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari, 34 tasi diqqatga sazovor joylarni tashkil etadi. Ulardan 1011 tasi respublika, 596 tasi mahalliy ahamiyatdagi obyektlar hisoblanadi.

Arxitektura obyektlarining 72 tasi jome masjidi, 5 tasi cherkov sifatida foydalanilmoqda va moddiy madaniy meros obyektlarining 1386 tasi davlat, 221 tasi shaxsiy mulkdagi turar-joy binolari hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni zamonaviy GAT dasturlari orqali xaritalashtirilsa ancha zamonaviy va ko'rgazmali bo'lishi bilan bir qatorda, ularning ma'lumotlar bazasi hosil qilinadi va bu orqali Samarqand viloyatidagi mavjud bo'lgan madaniy meros obyektlarini kartaga olish va ular ustida amallar bajarish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Рахимов, У. А. (2022, September). МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИНИ ЖОЙЛАШГАН ЎРНИНИ GNSS ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ АНИҚЛАШ. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 168-173).

2. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTлари DAVLAT KADASTRI BO'YICHA TEMATIK QATLAMLARINING ATRIBUTIV MA'LUMOTLARINI YARATISH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 8-12).

3. Abdullayevich, R. U. B. (2022, June). CREATION OF ATTRIBUTIVE DATA OF THEMATIC STRUCTURES OF THE STATE CADASTRE OF MATERIAL CULTURAL HERITAGE OBJECTS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 1-5).

4. Раимов, У. А., & Тухтаев, Ш. Х. (2021, October). Геодезический Мониторинг Деформаций Ансамбля Регистан. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 96-100).

5. Ilmurodova, L. A., Umirzakov, Z. T., & Mirzayev, P. J. (2023). Development of a Methodology for Mapping the Cadastre of the World of Plants Using Geoinformation Systems. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 288-292.

6. Haydarovich, B. M., Lazizbek, I., Rakhmanovich, Y. Z., & Mashrab, P. (2023). Theoretical and Practical Issues of Water Cadastre Management. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(2), 293-298.

7. Мирмахмудов, Э. Р., Ковалев, Н. В., Ниязов, В. Р., & Рахимова, М. Х. (2021). НЕКОТОРЫЕ ТРЕБОВАНИЯ ПО ПРОЕКТИРОВАНИЮ ОПОРНОЙ ГЕОДЕЗИЧЕСКОЙ СЕТИ СГУЩЕНИЯ ВБЛИЗИ КАРЬЕРА. Инновационные научные исследования.